

СЎЗ САЊАТИ ЖУРНАЛИ
JOURNAL OF WORD ART
ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

JEYMS HEDLI CHEYZ ASARLARI TARJIMASIDA LEKSIK-STILISTIK
TRANSFORMATSIYALARNING QO'LLANILISHI

Xolikova Nozima Nematilloeyvna

I-bosqich tayanch doktorant, Buxoro davlat Universiteti, O'zbekiston
e-mail: nozi0123@mail.ru

For citation: Nozima Kholikova. THE USE OF LEXICA-STYLISTIC TRANSFORMATIONS IN THE TRANSLATION OF THE WORKS OF JAMES HEDLEY CHASE. International Journal of Word Art. 2019, vol. 3, issue 4, pp. 73-77



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2019-3-8>

*Келиб тушган сана 28 июль, 2019
Эълон қилинган сана 30 сентябрь, 2019*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola mashhur ingliz detektiv yozuvchisi Jeyms Hedli Cheyz asarlarining o'zbek tilidagi tarjimasida leksik-stilistik transformatsiyaning qo'llanishiga bag'ishlangan. Leksik transformatsiya besh ta turga bo'linib, ularning tarjima-dagi muammolari va ingliz-o'zbek leksikasi o'xshash farqlari atroflicha o'rganilib tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida tarjimashunoslik sohasi va mutarjimlarga leksik transformatsiyaga doir tushunchalarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: stilistik, detektiv, leksik, transformatsiya, muvofiqlik, asliyat, tarjima, badiiylik.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В
ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖЕЙМСА ХЕДЛИ ЧЕЙЗА

Нозима Нематиллоевна Холикова

Доторант, Бухарский государственный университет, Узбекистан
электронная почта: nozi0123@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается использование лексико-стилистической трансформации в узбекском переводе известного английского детектива Джеймса Хедли. Приведено пять типов лексических трансформаций, их проблемы в переводе, а также изучено различие и сходство англо-узбекской лексики. Результаты этих наблюдений могут помочь улучшить знания переводчиков и ускорить процесс перевода.

Ключевые слова: стилистика, детектив, лексика, трансформация, согласованность, оригинальность, перевод, художественная

THE USE OF LEXICA-STYLISTIC TRANSFORMATIONS IN THE TRANSLATION OF THE WORKS OF JAMES HEDLEY CHASE

Nozima Nematilloevna Kholikova

Post-graduate student, Bukhara State University, Uzbekistan

Email: nozi0123@mail.ru

ANNOTATION

This article discusses the use of lexical-stylistic transformation in the Uzbek translation of the famous English detective James Hadley. There are given five types of lexical transformation, their problems in translation, and which was studied the difference and similarity of English-Uzbek lexica. The results of this observations can help to improve the knowledge of translators and fasten the translating process.

Key words: style, detective story, vocabulary, transformation, coherence, originality, translation, artistic

Tarjima san'ati eng nozik va nafis san'at turlaridan biri bo'lib, so'z o'rnining mukammal, puxta qo'llanilishini talab etadi. So'zlar shunday tanlanishi kerakki, tarjima hammaga tushunarli bo'lishi, asl jumlada ifoda etilgan ma'no tarjimada berilgan ma'no bilan muvofiq bo'lishi zarur. Bunday muvofiqlikni yuzaga keltirish uchun tarjima qilinayotgan gaplar so'zma-so'z, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi. Agar shunday bo'lganida edi, tarjimadan osonroq ishning o'zi bo'lmagan bo'lar edi. Tarjima san'atining o'ziga xosligi, nozikligi, sirlari ham ana shunda namoyon bo'ladi.

Leksik Transformatsiyalar.

Tarjimada, xususan badiiy asar tarjimasida tarjimon leksik-stilistik transformatsiyalardan to'g'ri foydalana olishi zarur. Bunday transformatsiyalar badiiy matn asosidagi ma'no, mazmun, g'oya va abadiy uslublarni saqlagan holda tarjima qilinadi. Shuningdek, tarjima jarayonida tarjimaning hammaga tushunarli bo'lishi, noo'rin so'zlardan qochib, yorqin tarjimani amalga oshirish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Ular so'zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Tarjima jarayonida ularning beshta turini uchratamiz.

1. Leksik transformatsiyaning birinchi turi qiyin bo'lgan so'zlarni tarjima jarayonida ma'nosini aniqlashda qo'llaniladi. Bunday holat fe'l so'z turkumi doirasida ko'p

qo'llaniladi. Chunki ingliz tilidagi fe'llar o'zbek tilidagi fe'llar kabi konkret, aniq emas, masalan "to have" fe'lini tahlil qilsak, bu fe'l aksariyat hollarda transformatsiyasiga uchraydi. "Ega bo'lmoq", "bor" ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, jumlada asosiy fe'l, modal fe'li va boshqa qator zamon fe'llarida ishtirok etadi. Bunday ko'p ma'noli fe'llar ingliz tilida ko'p uchraydi:

-I have to have it. I'll let you have it back promise.

-Menga pul kerak. Uni senga qaytarib olib kelishga va'da beraman.

"To get" fe'li ham shunday fe'llar qatoriga kiradi va "olmoq, qo'lga kiritmoq" deb tarjima qilinadi. Kontekstga qarab qanday ma'no ifodalab kelayotganligini anglash tarjimon mahoratiga bog'liq.

-He's paying me to get the information, so I'm turning to get it.

-U menga ma'lumotlarim uchun haq to'laydi, shuning uchun ularni yig'ishga urinaman.

Bu gapga "to get" fe'li "yig'ish" (ma'lumotlarni) ma'nosini ifodalagan.

-That got reaction.

-Bu ma'lumot qizga boshqacha ta'sir qildi.

Ushbu jumladagi "got" fe'li "reaction" so'ziga qo'shilib kelib, birgalikda "boshqacha ta'sir qildi" ma'nolarini ifodalagan.

Tarjima jarayonida shunday so'zlarga duch kelinadiki, mos keladigan ekvivalenti bo'lmaydi va tarjimondan tarjima jarayonida

iloi boricha asl holatida so'zlarni qo'llashni talab etadi. Bularga iboralar, boshqa davlatlarda qo'llanilmaydigan ismlar, ayrim geografik va joy nomlari, turli xil o'lchov birliklari, gazeta va jurnal nomlari, ma'lum bir xalqqa mos bo'lgan udumlar (realiyalar) kiritiladi: Iboralar nutqda tayyor holda uchraydi. Ular turg'un birikmalar sifatida funksional va semantik jihatdan bo'linmas bo'lib, ular tarjima qilinayotgan tildagi mos keladigan iboralar mosi tanlanib tarjima qilinadi. Iboralarning so'zma-so'z to'g'ri keluvchi ko'pgina turlari bor. Shunday iboralar borki, tarjimada qisman yoki to'la mos kelmasligi mumkin:

-If it's all the same to you Chief Inspector, I'll go to bed. I'm feeling like something the cat has dragged in.

- Agar qarshi bo'lmasangiz, men endi qaytsam, aks holda o'zimni xuddi ustimdan mashina yurib ketganday his qilyapman.

- As dangerous as slapping a rattlesnake, I thought, but didn't say so.

- "Bu chinqiroq ilonga tarsaki tushirsang ham foydasi yo'q", - deb o'yladim men, ammo ovoz chiqarib hech narsa demadim.

- He had spoken casually, but to me it was like taking a punch under the heart.

- U bu gapni odatdagi ohangda aytdi, ammo men uchun juda qattiq zarba edi.

Ko'pchilikka tanish bo'lmagan geografik va joy nomlari, manzili notanish bo'lgan joylar, milliy parlament nomlari tarjima jarayonida anchagina qiyinchilik tug'dirishi mumkin va tarjimon bunday nomlarni aynan tarjima qiladi. Masalan: Tarbox, Bar Harbor...

- Don't ask me how a Wentworth grocery story had got of an Oakland local newspaper.

- Hech tushunmayman, qanday qilib Ventvordagi baqqollik do'koniga mahalliy Oakland gazetasi tushib qoldi ekan.

Ingliz tili va o'zbek tilidagi o'lchov birliklari ayrim hollarda o'xshash bo'lsa, ko'p hollarda farqlanadi. Ingliz tilidagi o'lchov birliklari: yard, foot, inch, stone,

pound, ounce, gallon, pint bo'lib, tarjimon bu o'lchov birliklarini tarjimada o'z holicha qo'llashiga to'g'ri keladi.

- The Celestial Empire Hotel was only two or three hundred yards from this bar.

- "Osmon saltanati" mehmonxonasi ushbu bardan bor yo'g'i 200-300 yard masofada joylashgan edi.

Shuningdek, o'zblek tili ham boshqa tillarda uchramaydigan o'z o'lchov birliklariga ega: qadam, musht, qarich, kaft kabilar.

Tarjima qilinayotgan tildagi gazeta jurnal nomlari atoqli ot bo'lgani uchun aynan tarjima qilinadi. Masalan, "Peoples" jurnalida berilishicha; "Fordes" jurnalida tahlil qilinishicha; "Pravda Vostoka" gazetasi ma'lumotlariga ko'ra kabilar.

- That's one of the jokes of life, but there it was; the front page of Oakland Inquirer and slap on the front page was my photograph with a banner headline.

- Taqdir menga tuhfa qilgan tasodiflardan biri shuki, shundoqqina ro'paramda "Oklend Inkaurer" ning birinchi sahifasida fotosuratim va butun sahifaga yetgudek sarlavhali xabar chop etilgan edi.

Tarjima nazariyasida xos so'zlar realiyalar deb atalib, ular biror bir xalqqa, millatga oid udumlar, taomlar, narsalar bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz xalqi uchun "muffin" tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non ma'nosida "lobby" koridor, qabulxona ma'nolarini anglatadi va ular realiyalardir. O'zbek xalqi uchun to'y marosimlaridagi qiz uzatish, yor-yorlar, beshik, bandir, palovlar ham realiyalar bo'lib, boshqa bir xalq uchun izohsiz notanish so'zlar bo'lib tuyulishi mumkin.

- A number of pretty Chinese girls wearing cheongsams, slit either side to show off their shapelu legs.

- Yoni kesik "chungazama" kiyib olgan ajoyib xitoylik qizlarning xushbichim, tekis oyoqlari ko'rinib turar edi.

Milliy parlament nomlari asl holicha tarjima qilinadi. Ular: Bundestag

(Germaniya), Storting (Norvegiya), Rigsdak (Shvetsiya), Eduskunta (Finlandiya), Knesset (Isroil), Duma (Rossiya), Oliy Majlis (O'zbekiston), nomlari administratsiya hujjatlar uchun o'z holicha yoziladi.

2. Ikkinchi tur umumlashtirish bo'lib, asl jumladagi ortiqcha hisoblangan anqliklar umumlashtiriladi. Masalan, aslyatda atoqli otlar informativ xususiyatga ega bo'lsa, tarjimada u xususiyatga ega bo'lmasligi, uni tushirib qoldirib, jumalarda xususiyatini aks ettirib tarjima qilish yaxshiroqdir.

- A door further up the passage opened and a fat little man who could be either

- Eshiklardan biri ochildi va semiz, past bo'yli odam yo'lakka chiqdi.

Ushbu misolda past bo'yli odamning fransiyalik yoki italiyalikligi ortiqcha anqlik bo'lib tarjima ifodalanmagan.

- As I rolled off the road, there came another rifle shot and the dust was kicked up about two yards from me.

- Ana shu o'n ikkinchi o'q uzildi. Men undan ikki yard narida edim.

Quyidagi misolda "as I rolled off the road" (yo'l chetida), "the dust was kicked up" (chang ko'tarildi) so'z birikmalari ortiqcha informativ xususiyatga egaligi uchun tarjimada berilmagan. Xuddi shunday holatni quyidagi misolda ham kuzatishimiz mumkin.

- I wondered around the town for an hour, looking at the shops and absorbing the atmosphere of the place and liking it a lot.

- Men bir soatlar chamasi shahar kezdim, olomon va yon atrofini ko'rib chiqdim.

3. Uchinchi tur aslyat va tarjima matnlar orasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Agar aslyatda berilgan jumlaning tarjimada biror qismini tarjima qilmasdan adekvantligi ta'minlansa, jumlaning o'sha qismi tushirib qoldirib tarjima qilinadi va sabab natija bilan almashtiriladi.

- "Well, here we are - Hong Kong", he said over his shoulder. "Looks pretty good. They say there's no place quite like it on earth. Could be they are right?"

- Mana Gonkongga ham uchib keldik, - dedi u. - Qanchalar go'zal! Aytishlaricha yer yuzida boshqa bunday joy yo'q emish.

(Ular haq bo'lishlari mumkin-jumlasi hech qanday kerakli informativligi yo'qligi uchun tarjima qilinmay tushirib qoldirilgan).

- I looked around and found a flat, heavy stone larger than my hand.

- Og'ir, yalpoq toshni ham qo'limga oldim.

Aslida (atrofqa qaradim va qo'limdan katta bo'lgan og'ir, yalpoq toshni topdim) tarzida bo'lishi kerak.

4. To'rtinchi tur antonomik transformatsiya bo'lib, ba'zan so'zlarda inkor qo'shimchalar tushirib qoldiriladi.

- I could hear just a murmur of distant traffic, but nothing else.

- Mehmonxona tinch, faqat ko'chadagi qatnov ovozlari eshitilib qolardi.

Aslida (faqat ko'chadagi qatnov ovozlari boshqa hech narsa eshitilmas edi, deb inkor shaklda kesim berilgan).

- Without raising my head, I could see nothing.

- Eshitish uchun boshni biroz ko'tarish kerak.

Aslida tarjima gap inkor shaklda (boshimni ko'tarmasdan hech narsani ko'rolmasdim) bo'lishi kerak.

- I felt sore and hot, but I was lucky it was no worse.

- Yelkam qattiq jarohatlangan bo'lishda, umuman mening omadim kelgan, hammasi muvaffaqiyatli yakunlangan edi.

Jumlaning oxirgi qismi bo'lishsiz shaklda berilishi kerak. (hammasi yomon yakunlanmagan edi).

5. So'nggi tur gapning tushirib qoldirilgan qismini to'ldirish yoki kompensatsiya deb yuritiladi. Matnning to'laqonli bo'lishini ta'minlash uchun bir stilistik vosita o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa stilistik

vositalar qo'llaniladi. Jumlada qo'llanilgan fonetik, stilistik, grammatik vositalar tushirib qoldirilib, mazmun muvozanatini saqlash uchun to'ldiriladi, ya'ni kompensatsiya qilinadi.

- I leaned of the rail of the first-class deck of the ferry-boat and watched the third class passengers fight their way up gangplank onto the lower desk.

- Men yo'lovchilarni orolga tashiydigan kema sahnida turib, pastki palubada joylashayotgan odamlarni kuzatardim. Shundan so'ng birinchi toifa yo'lovchilarning ko'tarilayotganini ko'rish uchun burilib qaradim: ular orasida Stella yo'q edi.

Tarjimaadagi jumlar vaziyatni aks ettirish uchun kompensatsiya qilingan.

Ushbu misollardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, tarjima san'ati hozirgi zamon uchun eng muhim san'at turi va masalalaridan biri bo'lib, lug'at boyligi, mahorat sabr va mukammal bilim manbaini talab etadi, bundan tashqari tarjimon ikki tilni chog'ishtirish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan transformatsiyalarni puxta o'zlashtirishi, o'ziga qulay bo'lgan va to'g'ri keladigan transformatsiya turini qo'llab tarjimaadagi leksik muammolarni bartaraf etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wolosky, Shira. The Riddles of Harry Potter: Secret Passages and Interpretive Quests. Palgrave Macmillan, 2010. - 238 p.
2. Vasilevskaya N. M., Ganshina M. A., English Grammar, Higher School Publishing House, Moscow, 1964, p. 335
3. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. М.: "Изд. инст. общ.ср. обр.", 2001.-224с.
4. Воронцева Г. Очерки по грамматике английского языка.- М.: "Высшаяшкола", 1960.-396с.
5. Chase J.H. Come easy-Go easy.-Granada:"Watfa books", 1960.-P.80.
6. Cheyz J.H. Seyfdagi pullar. Tarjima asar.-T.: "Yangi asr avlodi", 2011.-224b.
7. Chase J.H. A coffin from Hong Kong.-Granada:"Watfa books", 1962.-155p.
8. Cheyz J.H. Gonkongdan kelgan tobut. Tarjima asar.-T.: "Dizayn press", 2012-172b.
9. Chase J.H. Vulture-is a patient bird. Royallib: "Wafta books", 1965.-P.185.
10. Cheyz J.H. Quz' un sabrli qush. Toshkent: "O'zbekiston", 2012-177b.
11. Шалаева Н. В., Краткая грамматика английского языка в таблицах и схемах, Москва, 1991, 38 стр.
12. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.- T. : "Tafakkur bo'stoni", 2012.-216b.
13. Akhmedova M.B., Bakayeva M.K. Analysis of "Spirituality" category and its structure in the English language. IJITEE-journal, ISSN: 2278-3075 Volume-8, Issue-9S, July 2019

Internet Saytlari

1. www.uz.ref.uz
2. www.kitoblar.uz
3. www.dissertation.narod.ru
4. www.bestreferat.ru
5. www.studentex.com
6. www.polyglot-language.com
7. www.royalib.ru
8. www.twi.pix.com
9. www.sparknotes.J.H.Chase.com
10. www.ziyonet.uz
11. www.transformationalrule.com
12. www.uzb-eng.dictionaries.com